

Buyuk sarkarda va shoir

3 - betda



5 - betda
Shohsupaga chiqsam

Oz-oz o'rganib dono bo'lar

6 - betda

7 - betda

Bobo izidan...



Ona yurti - oltin beshiging

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2007-yil 12 - 18 - fevral N:7 (66600)

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

14-fevral — Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun



Oltin minbar

DARVOZA OLDIDAGI

Ko'chadan o'tayotib, o'yinchoq mashinasi yukxonasidagi qumni darvoza oldidagi chuqurchaga to'kayotgan bola oldida qiziqsinib to'xtadim. Ko'cha serqatnov bo'lmasa-da, onda-sonda mashina o'tib turardi. Bola menga ko'zi tushib salom berdi-da, chuqurchani tekislashda davom etdi. Yaxshi o'yin topibsam, dedim atayin nima deb javob qaytararkin degan ma'noda.

-Bu o'yin emas, bu ish, amaki, - dedi boshini ko'tarmay. Uning ovozi bolalarcha soddalig-u, kattalarga xos ishonch va qat'iylik bor edi. Oilada to'g'ri tarbiya olayotganga o'xshaydi, katta bo'lsa, yaxshi inson bo'lsin, degan xayrli o'y bilan yo'limda davom etdim. Bir qaraganda, bu oddiy hol, oddiy mavzu. Indamay o'tib ketsak ham hech narsa yutqazmaymiz. Ammo shu voqea bahona, keling, bir mulohaza qilib ko'raylik. Siz ishga boryapsiz, ko'lmak to'la chuqurchaga mashina g'ildiragi tushib, sizga loyqa suv sachradi va kiyimlaringiz rasvo bo'ldi: turgan gapki, jahlingiz chiqadi - bir; uyga qaytib, kiyimlaringizni almashtirib, ishga kechikib borasiz - ikki! Sizga ziyonmi? Ziyon! Bola esa Sizni shuncha bosh og'riqdan xalos etyapti. O'sha chuqurchaga zarb bilan urilgan g'ildiraklarning biri ishdan chiqishi yoki mashina egasining jig'ibiyron bo'lishiga olib keladimi?! Keladi! Endi nishonning orqa tomonini aylantirib ko'raylik.

Aziz ukajonlar. Siz ko'z ochib yumguncha katta bo'lasiz va katta hayot ummoniga qo'shilib ketasiz. Barcha buyuk zotlar esa yoshlikdan o'z yo'llarini belgilab olganlar va ular eng birinchi galda ilm olishga intilganlar, chunki hayotning turgan-bitgani ilmdan iborat.

Siz dunyoga eng ko'p allomalar yetkazib bergan muqaddas zamin bolalarisiz. Istagan sohani, istagan fanni oling: ularning barchasi ulug'-ulug' bobolaringiz tomonidan nafaqat o'rganilgan, balki bu sohalarida xalqqa yengillik bo'lsin deb katta-katta kashfiyotlar qilingan. Xullas, bu dunyoning boshi ham, oxiri ham ilm ekanligini o'zingiz ham tushunasiz, faqat bugun sizga shuni yana bir marta eslatib qo'yapmiz, xolos. Bu ham bizning burchimizdir. Zero, aziz ukajonlar, «Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir». Jahon tibbiyot fanining daholaridan biri Ibn Sino bobongizning fikricha, odam bolasi o'n to'qqiz yoshgacha bilim olishi zarur ekan, undan so'ng, miya faoliyati birmuncha qotib qolar ekan. Buni ham unutmang.

XXI asrda texnika yana-da rivojlanmoqda. To'g'ri, bizga shoirlar, yozuvchilar, olimlar kerak, ammo bugun texnikani chuqur egallagan bilimdon bolalar ham zarur. Chunki, aziz ukajonlar, kelajakda bitta qudratli mashina yaratib, mamlakatimizni tubdan gullatib yuborishingiz yoki uning jahondagi bo'y-bastini yana-da yuksak tog'larga tenglashtirib qo'yishingiz mumkin. Rustam Qosimjonov shohmot bo'yicha chempion bo'lganida, qanchalik quvondik. Sizlardan ham shunchalik quvonib yashaylik!

Mushtdek chuqurchani qum bilan to'ldirayotgan tengdoshingiz bahona shuncha gaplarni aytdik. Quloqqa olsangiz, o'zingizga foyda. Bizga ham, Vatanga ham foyda! Shunday ekan, bugundanoq ana shu tengdoshingiz kabi Vatanni sevib, kam-ko'stini to'ldirib, obro'sini oshirib, uni har tomonlama obod etishga intilsangiz, Siz oliyjanob inson sanalasiz! Biz sizlarga ana shunday oliyjanobliklar yor bo'lishini tilaymiz!

Kim yor anga ilm tolibi ilm korak
O'rangali ilm tolibi ilm korak
Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo'q,
Men bormen ilm tolibi, ilm korak.

BOLA

Maktabimni maqtadim

Qadimdan insonlarga bilim beradigan maskanlar muqaddas dargoh sanalgan. Yozma ma'lumotlarga qaraganda, birinchi maktab bundan 5 ming yil avval Misrda qurilgan ekan. 1893-yilda 1-jadid maktablari ochilib, faoliyat yuritgan. X asrda esa birinchi madrasa tashkil etilgan bo'lib, bu yerda bolalar 6 yoshdan boshlab o'qitib kelingan.

Keyinchalik bunday bilim dargohlari «maktab» deya yuritila boshlandi.

Hozir men biz uchun muqaddas dargoh sanalmish poytaxtdagi 274-maktab haqida maktabimni ishlarimiz talaygina-da.

Hashar yo'li bilan 1934-yilda qurilgan maktabimiz 1936-yilda bilimga chanqoq ota-onalarimizni o'z bag'riga olgan ekan. Uzoq yillar mobaynida ancha eskirib, ta'mirtalab bo'lib, biz o'quvchilariga torlik qilib qolgan maktabimiz binosi o'rnida o'tgan yili 3 qavatli chiroyli, ko'rkam, barcha sharoitlar muhayyo bo'lgan



fikr yuritmoqchiman. Aniqrog'i, maqtamoqchiman. Chunki maqtasa arzigulik

1934-yilda qurilgan maktabimiz 1936-yilda bilimga chanqoq ota-onalarimizni o'z bag'riga olgan ekan. Uzoq yillar mobaynida ancha eskirib, ta'mirtalab bo'lib, biz o'quvchilariga torlik qilib qolgan maktabimiz binosi o'rnida o'tgan yili 3 qavatli chiroyli, ko'rkam, barcha sharoitlar muhayyo bo'lgan maktab binosi qad rostladi. Buning uchun yurtboshimizdan behad mamnunmiz. Keng va shinam, har bir fanga moslab jihozlangan sinf xonalarida saboq olishning gashti juda bo'lakcha ekan-da.

Bizning ustozlar borasida ham omadimiz chopgan. 10 nafari oliy, 12 nafari birinchi toifali bo'lgan o'qituvchilarimiz bilimlariga qo'shib bor mehrlarini ham ayashmaydi. Darsdan so'ng «Nihol», «Yosh tilshunoslar», «Yosh rassomlar», «Yosh fiziklar», «Mohir qo'llar», «Kompyuter savodxonligi», «Yosh kitobxonlar» kabi to'garaklarda bilimimiz yana-da boyib, hunarli bo'lishga intilayapmiz. Yoshimizga, didimizga mos kitoblar tanlab beradigan kutubxonachimiz Yulduz opaning xushmuomalaliklarini aytmaymizmi?!

Maktabimizda besabab dars qoldiradigan, ularga kechikib keladigan o'quvchilar soni sezilarli tarzda kamayib boryapti. Sababi, ustozimiz Husan aka Mo'minov chiqaradigan «Qalampir» nomli devoriy gazetada o'zi haqidagi kulguli she'ri o'qib, hammaga masxara bo'lishni kim ham xohlaydi deysiz?

Xullas, shunaqa gaplar. Bilim maskanimiz bag'rida har bir kunimiz mazmunli, maroqli o'tayapti.

Zilola ABDUQODIROVA,

Yunusobod tumanidagi 274-maktabning II-«A» sinf o'quvchisi.

HAR KUNIMIZ MAROQLI


HAM GO'ZALLIK, HAM SOG'LIK

Men Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 40-maktabda o'qiyman. Maktabimizda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati doimo faol ish olib boradi. Bahor kunlari yaqinlashayotgani bois, maktabimizda obodonlashtirish ishlari boshlab yuborildi. Zamonaviy maktabimizni yana-da gullab-yashnashi uchun o'quvchilar qo'llaridan kelgan yordamni ayamayaptilar. «Kamolot»chilar maktab hovlisiga qanday daraxtlar o'tqazish kerakligini so'rashganida, maktab ekologiya sardori sifatida men archa ko'chati o'tqazishni tavsiya qildim. Sababi, archa havoni zaharli gazlardan tozalash bilan birga, biologik jihatdan qishin-yozin o'z go'zalligini saqlab qolishi hech kimga sir emas. Ushbu taklifim barchaga, shuningdek, maktabimiz rahbari Mastura opa Nosirovaga ham juda ma'qul bo'ldi.

Kuni kecha «Kamolot» sardori Ravshan Hamdamov boshchiligida o'quvchilar olib kelingan archa ko'chatlarini maktab hovlisiga o'tqazdik. Maktabimiz bog'idagi mevali va manzaralari daraxtlarni ortiqcha shox-shabbalardan tozaladik. Bu ishimizdan maktabimiz rahbari Mastura opa juda quvonib, obodonlashtirish ishlarida faol qatnashgan o'quvchilarni taqdirlashga va'da berdilar.

Bahodir RAHMONOV,
10-«A» sinf o'quvchisi.

Assalomu alaykum, aziz «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari! Men Muxlisa Malikova Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi Ko'lbaxti qishlog'ida yashayman. 1983-yilda tug'ilganman. 2001-yili, ya'ni 19 yoshimda Ko'lbaxti qishlog'idagi 40-sonli maktabga o'qishga qabul qilindim. Maktabga kech borishimning sababi, birinchi guruh



SAXOVAT ULASHIB YASHAYLIK

nogironiman. Voyaga yetganda maktabda o'qish juda qiyin ekan. Boz ustiga, nogironlar uchun ajratilgan maxsus aravacham ham yo'q. Ustozim Feruza Jo'rayevaning ko'magi bilan o'qish va yozishni o'rganib oldim. Hatto she'rlar ham yoza boshladim. Ulardan birini tahririyatingizga jo'natayapman.

QO'ZIQRIN
Yomg'irdan to'yib chiqar,
Qalpog'in kiyib chiqar,
Assalom ona yer deb,
Dunyoni suyib chiqar.

Sizga maktub yo'llashimdan maqsadim, oilaviy sharoitimiz og'irligi bois menga nogironlar aravachasi olishga yordam berishingizni so'rayman.

Tahririyatdan: Biz Muxlisaxonning maktubini deyarli tahrirsiz chop etayapmiz. O'ylaymizki, Buxoro viloyati hamda Peshku tumanidagi mutasaddi rahbarlarimiz qalbi she'riyatga oshno singlimizning taqdiriga aslo befarq bo'lmaydilar. Bu mavzuga yana qaytamiz.

yilligi munosabati bilan qaytadan qad rostlayotgan «Puri Siddiq» ziyoratgohini hamda yangi qurilayotgan me'moriy binolar bilan yaqindan tanishdilar. Kunning ikkinchi yarmida «Toshloq» kinoteatrida forum qatnashchilari uchun «O'quvchilar Ijodiyot markazi» qatnashchilari hamda viloyatimizda irod qilayotgan yosh san'atkorlar ishtirokidagi konsert dasturi namoyish qilindi. Tadbir davomida ishtirokchilarning irod namunalaridan jamlangan ko'rgazmalar namoyish qilindi.

Forum yakunida g'olib bo'lgan o'quvchilarga va barcha ishtirokchilarga tuman hokimligi hamda homiy tashkilotlar tomonidan tayyorlangan esdalik sovg'alari taqdim etildi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu o'quvchi yoshlar forumi shakllanib kelayotgan yosh iste'dod egalarini bundan-da yaxshiroq yutuqlarga erishishlari va kelajakda dunyoni zabt etishlari uchun turtki bo'ladi, desak xato bo'lmas. Zero, aqlli, zukko, iqtidorli yoshlarimiz kelajakda vatanga munosib farzand bo'lishlariga ishonamiz.

A.JO'RABOYEV, Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi «O'quvchilar Ijodiyot markazi» rahbari.

AJODLARNI YOD ETIB

Yaqinda Toshloq tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli «O'quvchilar Ijodiyot markazi» tashabbusi bilan «Senga tuhfamiz, Vatan!» mavzusida iqtidorli o'quvchi yoshlar forumi o'tkazildi. «Ijtimoiy himoya yili» hamda «Marg'ilon shahrining 2000 yilligi» munosabati bilan Toshloq tumani hokimligi, O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasi tuman kengashi «Yoshlar qanoti», Xalq ta'limi bo'limi, «Kamolot» YOIH tuman kengashi hamda O'quvchilar ijodiyot markazi hamkorligida tashkillangan ushbu forumda Respublika Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan tanlov g'oliblaridan iborat 250 nafar yosh iste'dod egalari ishtirok etdilar.

Forum kun tartibida dastlab tadbir qatnashchilarining Marg'ilon shahriga sayohat tashkillashtirildi. Sayohat davomida o'quvchilar Burxoniddin al Marg'inoniy ziyoratgohiga tashrif buyurib, Islom olamida dunyoga tanilgan buyuk allomaning hayot yo'li va qoldirgan bebaho asarlari haqida ma'lumot oldilar. Shundan so'ng, tadbir ishtirokchilari Marg'ilon shahrining 2000

BUYUK SARKARDA VA SHOIR

Boburning 564 yilligini nishonlash maqsadida nafaqat maktablarda, balki tumanlar miqyosida ham turli tadbirlar o'tkazilmoqda. Ana shunday qiziqarli tadbirlardan biri maktabimizda ham bo'lib o'tdi. Adabiyot muallimimiz Boburning hayot yo'li va «Boburnoma»ning yozilish tarixi haqida so'zlab berdilar, shoirning ruboiylaridan, g'azallaridan namunalar o'qildi. Shuningdek, sahna ko'rinishida buyuk sarkarda va shoirning hayot yo'li, chekkan zahmatlari o'quvchilar tomonidan ijro etildi. Tomoshabinlar tomonidan biz ham, tadbirni tashkillashtirgan muallimlarimiz ham birdek olqish oldik.

Jo'rabek KOMILOV,
Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi
8-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi.



RUBOIYLAR

Avvoraliq asr-u¹ xonumondin yaxshi,
Bir go'sha manga ikki jahondin yaxshi.
Avvora bo'lurni yaxshi ermas demagil,
Bo'lsam agar avvora ne ondin yaxshi.

(Asr'u - juda)

Beqayd men-u xarobi siym² ermasmen.
Ham mol yig'ishturur laim³ ermasmen,
Kobulda iqomat etti Bobur dersiz,
Andoq demangizlarki, muqiyim ermasmen.
(xarobi siym² - kumush uchun zor)
(laim³ - ochko'z)

Bu olam aro ajab olamlar ko'rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum.
Har kim bu «Vaqoyi»⁴ni o'qur, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mehnat-u ne g'amlar ko'rdum.

«Vaqoyi»⁴ - voqealar,
«Boburnoma»ning asl nomi

O't soldi ko'ngulga ranj-u betoblig'im,
Su qildi bu xasta jonni beoblig'im⁵.
Bu ikkalasi agarchi bor muhlik-u⁶ sa'b⁷,
Lek o'lturadur tonggacha bexoblig'im⁸.

Beoblig'im⁵ - suvsizlik, chanqayverish.
Muhlik⁶ - halok qiluvchi.
Sa'b⁷ - mushkul.
Bexoblig'im⁸ - uyqusizlik.

FARZAND KO'YIDA YONGAN OTA

Bobur Mirzoning bir necha farzandlari bo'lganligi bizga tarixdan ma'lum. Ulardan har birining alohida o'rni bo'lgan. Ayniqsa, Humoyun Mirzo boshqa farzandlari orasida ajralib turgan. Bobur uning ahvoli yomonligini bilib, Ollohdan farzandimning dardini menga bergin, deya so'raydi. Bu holatni ko'rgan mulozimlar Boburning naqadar bolaparvar ekanligiga yana bir bor amin bo'ladilar.

Bir umr Vatan ishqida yonib o'tgan shoh va shoir haqida ko'plab hikoyatlar qolgan. Men quyida sizlarga o'zim o'qigan hikoyatlardan birini aytib beraman:

«Agradagi saroylaridan birida dam olayotgan Boburning yoniga bir mulozim kelib, ta'zim qilibdi va unga bog'dan qovun olib kelganligini aytibdi. Bobur Mirzo qovunni tatib ko'rarkan, yuzlarida tabassum o'ynab, ko'zlari quvonchdan porlabdi.

—Darhol bul qovundan farzandlarimga va zavjalarimga ham tarqating, - deya amr qilibdi.

—Nega begim, axir bog'da qovun serobku, - deb savol bergan mulozimga:

—Bu qovun Andijondan keltirilgan ekan, - deb javob qaytaradi.

—Buni qaydan sezdingiz, Mirzo?-deb so'rabdi mulozim andisha bilan.

—Hidi, ta'mi va mazasidan, - deb javob beribdi Bobur Mirzo. Shu tariqa bu yerdagilar Boburning topqirligi-yu, Vataniga bo'lgan mehr-muhabbati shu qadar kuchli ekanligiga yana bir bor qoyil qolishgan ekan».

Ozoda TURSUNBOYEVA.

BOBUR YODI

Farg'ona vodiysi guli, chamani,
Ko'hna Andijondir uning Vatani.
Yurtidan yiroqda yashab u mudom,
Andijon haqida o'yarladi har dam.

«Boburnoma» bitdi, «Turkiy devon»ni,
Shoh va shoir edi uning unvoni.
O'zbek, hind xalqlari hamon eslaydi,
Yana shunday shoir dunyoga kelsaydi.

Hazrat Navoiyga ta'zimlar qildi,
Ul zotni o'ziga chin ustoz bildi.
Shoirning ikki misrasin o'qib,
Qo'lga qilich oldi, Kobulga keldi.

O'zining mardligin jangda isbotlab,
G'alaba gashtidan sarmast bo'loldi.
Hind sari yuzlandi, ammo yurt mehri,
Uning qalblarida manguga qoldi.

Qudrat AZIMXO'JAYEV, TIMI qoshidagi Yunusobod Akademik litseyi o'quvchisi.

«O'zbek xalq ertaklari»
kitobidan



Qadimgi zamonda bir chol bor ekan, uning o'n yashar o'g'lidan boshqa hech kimi yo'q ekan. Cholning yeyarga noni, kiyarga kiyimi yo'q ekan. Kunlardan bir kuni qo'shnisi Salimboyning oldiga kelib:

—Boy ota, bizga yordam qiling, o'g'lim Rustamjon bilan birga qo'limdan kelgan xizmatni ayamayman, rahm qiling, - deb yig'labdi.

Salimboy cholga:

—Avval qarzingni to'la, keyin narsa so'ra, - deya do'q qilibdi.

—Boy ota, sizdan qanday qarzim bor? Menga hech narsa berganingiz yo'q-ku? - debdi chol hayron bo'lib.

Salimboyning ko'zi olayib ketibdi.

—Gapirma, imonsiz chol! Hali tonmoqchimisan? - deb qo'lida o'ynab turgan qamchisi bilan cholni savalay ketibdi. Chol yerga yiqilibdi. Kichkina Rustam nima gapligiga tushunmay, otasini quchoqlab dodlabdi. Chol o'zini biroz tutib olib, yalinibdi:

—Menga tushuntiring, yodimdan ko'tarilgan bo'lsa, eslatang. Sizdan qay vaqtda, nima olgan edim? Qanday qarzim bor?

—Menga qara, imonsiz chol! Xotining o'lganida yuvuqchiga pulni kim berdi? Qabristonga domlarni kimning ot-aravasida olib bording? Payshanba kuni biznikida yuz odamga qilingan xudoyi osh-chi? - deb baqiribdi boy.

Qurumsoq boyning surbetligi cholni g'azablantirsa ham, ochlik, qarilik yengib qo'ygan ekan. Boy tuhmat qilayotgan bo'lsa ham, bo'yniga olishga majbur bo'libdi. Boy: —Qarzni sen to'lamasang, o'g'ling katta bo'lganida-to'lar, - debdi. Chol:

—Xo'p, mayli, faqat hozir yordam qilib tursangiz bo'ldi, - deb yalinibdi.

—Xo'p deyish bilan ish bitmaydi. Qancha qarzing borligiga tilxat ber, - debdi boy.

—Salimboy, o'n besh tilla qarzsang, - deb kekirib, cholning tilidan o'zi tilxat yozib, ota-bolaning barmog'ini bostirib olibdi va:

—Ana endi ketaveringlar. O'g'ling katta bo'lganida ishlab topib berar, - debdi.

Bir burda non tilab kelgan ota-bola Salimboyning eshigidan o'n besh tilla qarzga botib chiqib ketishibdi.

Chol uyiga yaqinlashganida Siddiq yamoqchini ko'rib, bo'lgan voqeani so'zlab beribdi va «endi nima qilaman?» deb maslahat so'rabdi. Siddiq yamoqchi qo'shnisiga achinibdi, lekin nima yordam bera olardi...

—Tuzoqqa tushibsiz, - debdi u, - shahar hokimi Salimboyning kuyovi bo'ladi. Endi taqdirga tan berishdan

Davomini 4-betda o'qiyisiz.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUDINING 524 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN BAYRAM TADBIRI SSENARIYSI

1-boshlovchi:

–Assalomu alaykum, mehri daryo, bag'ri keng ustozlar-u maktabimizning zehni o'tkir, bilimdon o'quvchilari!

2-boshlovchi:

–Bugun buyuk mutafakkir, davlat arbobi, iqtidorli shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga 524 yil to'ldi. Shu munosabat bilan sinfimiz o'quvchilari sizlarga bayram tuhfasini taqdim etadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Farg'ona viloyatining hukmdori Umarshayx Mirzo va uning rafiqasi Qutlug' Nigor xonim oilasida dunyoga keldi.

1-boshlovchi:

–Umarshayx Mirzo o'g'li Zahiriddinni

ta'lim-tarbiyasiga katta ahamiyat berdi. 1494-yilda otasining vafotidan so'ng 12 yoshli Zahiriddin taxtni egalladi.

1-boshlovchi: –Bobur 16-17 yoshlaridan ijod qila boshlagan. U asosan o'z ona tili, qisman forsiy tilda ham asarlar yaratgan. Uning «Mubayyin», «Volidiyya» kabi asarlaridagi ma'lumotlar arab tilini puxta bilganligidan dalolat beradi.

2-boshlovchi: –Boburning g'azal, masnaviy, ruboiylarida ko'proq vataniga bo'lgan muhabbat, sog'inch aks etgan.

Bobur juda ko'p jang-u jadallar qildi. Bir gal qo'li baland kelsa, keyingisida yengildi. U g'alaba qilib, xalqning boyligini talon-taroj qilmadi. Aksincha, xalqning turmush tarzini yaxshilab mamlakatni obodonlashtirdi.



Ruboiy

**Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.**

(Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» asaridan parcha).

Mumtoz qo'shiqqa raqs.

Sahna ko'rinishi:

Qatnashuvchilar: Bobur, Xonzodabegim, navkarlar, Muhammad Ko'kaldosh.

(...Kunduzning mustahkam qal'a va uning ichidagi qasr ham Xonzodabegimga uzoqdan fayzli ko'ringanday bo'ldi. Ularni kutib olgan mulozimlar Xonzodabegim, o'g'li va kanizlarini mehmonxonaning bezatilgan alohida bir xonasiga kiritib qo'ydilar. Xonzodabegim o'tirgan xona eshigidan chiroyli soqol-mo'ylov qo'yg'an o'ttiz yoshli yigit shoshib kirib keldi).

Bobur: –Begim, qadamingiz qutlug' bo'lsin.

Xonzodabegim: –Qulluq!

(Xonzodabegim ukasini soqol-mo'ylov qo'ymagan 19 yoshli silliqqina yigit qiyofasida eslab qolgan edi. Shu sababli ham u ukasini kelishini kutib turardi. Muhammad Ko'kaldosh kiradi).

Xonzodabegim: –Amirzodam qaydalar?

Muhammad Ko'kaldosh hayron bo'lib, Boburga qaradi.

Bobur gap nimada ekanligini fahmlab:

–Meni tanimadingizmi?

–Siz... Siz...

–Men Boburmen...

–Nahot?

–Men sizning iningizmen. Gunohkor iningiz Bobur!

Xonzodabegim: –Boburjon, siz o'shanda mendan ranjigansiz. Bilaman, boshingizga tana toshlari yog'ilgan men... aytolmagan edim. O'zim uchun emas, siz uchun.



Bobur: –Men ham buni keyin bildim, siz meni qutqarish uchun o'zingizni xonga tutib bermishsiz. Men sizdan umrbod qarzdormen.

Xonzodabegim: –O'shal qarzingizni mana endi uzdingiz, Boburjon. Bu daf'a meni siz qutqardingiz. Agar shoh Ismoilga yozgan nomangiz bormasa, meni ham xon harami bilan asir tushgan ayollar qatori biror bek yoki mulozimga tutqin qilib berur edilar. Shoh Ismoil siz tufayli meni shunchalar izzat-ikrom bilan ozod qilib, kuzatib qo'ydi. Sizdek inim borligi uchun Xudoga ming shukurlar qildim.

1-boshlovchi: –Bilasizmi, opa-ukani bir-biriga bo'lgan mehr-u oqibati, muomalasi, ahil-inoqligini ko'rib, havasim keldi.

2-boshlovchi: –To'g'ri aytasiz, nafaqat opa-uka, opa-singillarimiz, do'stlarimiz, sinfdoshlarimizdan shirin so'z, mehrimizni ayamasak, oqibat kuchayadi va u hech qachon so'nmaydi.

1-boshlovchi: –Mana bu hujraga qaraylikchi, bu yerda ne gap ekan?

(Sharq milliy kiyimidagi qiz dugonalari bilan g'azalxonlik qilishmoqda).

**G'urbatqa soldi charx meni yuz jafu bila,
Yod ayla men g'aribni gohi duo bila.**

**Behad vafov-u mehr sanga ko'rsatib edim,
Sen ham sog'ingasen meni mehr-u vafo bila.
Chun qildi meni ul buti Chin zoru muhtalo,
Ishim mening qolibturur emdi xudo bila.**

**Ko'rmon farahni bir dam agar andin ayrumen,
Bilmon alamni bormen oning birla to bila.
Ul sarvg'a karam qilibon yetkur, ey sabo,
Bobur niyozini yer o'pub xo'b ado bila.**

Mumtoz musiqaga raqs.

1-boshlovchi: –Bobur 1530-yilning 26-dekabrda 47 yoshida Agrada vafot etdi. Keyin uni hoki vasiyatiga ko'ra Kobulga ko'chirildi.

2-boshlovchi: –Bobur 20 yoshida yangi yozuv «Xatti Boburiy»ni kashf etdi. Butun umri, hayoti, ijodi, qilgan jang-u jadallari, ko'rgan-kechirganlari jamlangan «Boburnoma»ni yaratdi. U xalqimizning eng katta boy merosiga aylandi.

Mumtoz qo'shiqqa raqs.

1-boshlovchi: –Shuning bilan ulug' bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlangan dasturimiz o'z nihoyasiga yetdi.

2-boshlovchi: –Sizlarga ham buyuk bobomiz singari iqtidor va ilm yor bo'lishini tilab, kechamizni yakunlaymiz.

Kamola ERGASH qizi.

Davomi. Boshi 3-betda.

boshqa chorangiz yo'q.

Chol o'g'lini bag'riga bosib, och-nahor boshini yostiqa qo'yibdi. Yarim kechada uch kishi cholning uyiga bostirib kiribdi. Ulardan biri cholni oyog'i bilan tepib, «tur, imonsiz» debdi. Chol ajablanib:

–Sizlarga nima qildim? - deb so'rabdi.

–Uyni bo'shat!–deb baqirishibdi bostirib kirganlar.

–Sizlar yanglishgan bo'lsalaring kerak, bu mening o'z uyim, - debdi chol.

Bostirib kirganlardan biri:

–Biz shahar hokimining odamlarimiz. Sen imonsiz bundan bir yil ilgari bu uyni Salimboyga o'n besh tillaga sotib, pulini naqd olgansan. Boy shu vaqtgacha insof qilib indamabdi, - debdi.

–Sotgan emasman, sotmayman ham! –deb baqiribdi chol.

–Sotgan emasman, deysanmi? –debdi qo'lidagi qog'ozni ko'rsatib. –Mana tilxating. Ota-bola barmoq bosgansanlar. Hokim «To'g'rilikcha chiqsa chiqsin, qaysarlik qilsa, uydin sudrab olib ota-bolani zindonga tashlanglar», deb buyruq bergan ekan.

Chol bunday hukmni eshitib, es-hushidan ayrilay debdi.

Cholning oh-zoriga Siddiq yamoqchi va xotini uyg'onib ketibdi. Xayrlashayotganlarida yamoqchining xotini «Qayerga borsangiz ham, hamrohingiz bo'lsin», deb bitta zog'ora non beribdi. Bechora chol Rustamni opichib tog' tomonga yo'l olibdi.

Chol dasht-u biyobon, tog'-u toshdan o'tib uzoq yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Har zamonda Rustam: «Qayerga ketyapmiz, ota?» deb so'rab qo'yar ekan. Chol indamas, chunki qayoqqa ketayotganini o'zi ham bilmas ekan. Ular horib-charchab archazorga yetibdi. Shu yerda o'tirib dam olibdi.

–Ota, anavi nima? –debdi Rustam ancha dam olganlaridan keyin.

Chol qarasa, ulardan sal nariroqda katta ayiq turganmish. Qochay desa, madori qolmagan chol jonholatda Rustamni bag'riga bosibdi. Rustam ularga qarab kelayotgan dahshatli hayvondan qo'rqqanidan qichqirib yuboribdi. Chol Rustamning yig'isini eshitib: «Bolamdan ajralibman-da», deb behush yiqilibdi. Ayiq sekin kelib cholning bag'ridan Rustamni ajratib, o'zi cholni ko'tarib g'orga kirib ketibdi. Chol hushiga kelib ko'zini ochsa, sal narida Rustam ayiq bolasi bilan asal yeb o'tirganmish. Chol ko'zlariga ishonmabdi. Chol Rustamni chaqiribdi. Rustam anchadan beri hushsiz yotgan otasining ovozi eshitib, yoniga chopib kelibdi.

–Ota, turing, asal yeng, - debdi.

–Kim u? - deb so'rabdi chol Rustamdan.

–Bu mening o'rtog'im. Onasi sizni ko'tarib kelib, bu yerga yotqizib qo'ydi. «Otang uyg'onguncha xalaqit berma, uxlasin. Bu mening bolam, senga o'rtog' bo'ladi. Senlar asal yeb turinglar, men qaytib kelaman», dedi.

Chol Rustamdan eshitgan gaplariga goh ishonib, goh ishonmay hayron bo'lib turganida, ayiq eshikdan bir dasta non, bir toqovda sut ko'tarib kirib kelibdi. Chol ayiqni ko'rishi bilanoq o'rnidan turib ta'zim qilibdi. Ayiq qo'lidagi narsalarni yerga qo'yib, cholga:

–O'tiring, o'zingizni koyitmag, siz mening mehmonim bo'lasiz. Men sizga non, sut keltirdim. Siz azob chekkan, xo'rlangan, dunyoning lazzatlaridan mahrum etilgan ko'rinasiz. Oldin ovqatlanib oling, keyin suhbatlashamiz, - debdi.

Chol ayiqning mehribonchiligiga ajablanibdi.

–Otajon, siz ko'p ajablanmag. Shu atrofda cho'pon do'stlarim bor. Boylarning, hokimlarning qo'ylarini boqadilar. Non, sutni o'shalarnikidan keltirdim, -deb ovqatga taklif qilibdi ayiq.

Chol qornini to'yg'azib, ayiqqa boshidan o'tganlarini hikoya qilib beribdi.

–Otajon, siz meni ham «bolam» deb biling. Bu ikki go'dak do'st bo'lsin. Bu joyda bemalol yashayvering, -debdi ayiq.

Ular birga yashay boshlashibdi.

Davomi kelgusi sonda.

ASAKALIK CHEMPIONLAR

raisasi Manzura Jo'rayeva o'ta samimiy va istarasi issiq ayol bo'libgina qolmay, tadbirkor ekan.

—Mahallamizda 927ta oila mavjud. Mustaqilligimizning 15 yilligi bayramida 275 nafar mahalla bolalari uchun bayram dasturxonini yozilib, konsert dasturi namoyish etildi. Kam ta'minlangan oilalarning 33 nafar farzandlariga maktab formasi, 8 nafariga o'quv qurollari topshirildi. Hududda jami 1675 nafar voyaga yetmagan o'g'il-qizlar bo'lib, ular hunarmandchilik sirlarini o'rganishyapti. O'zingizga ma'lum, Asaka shahri do'ppichilik, pichoqchilik, chopon tikish, ko'rpa-to'shak qavish ishlari bilan dong taratgan... Shahardagi huquqtarg'ibot organlari bilan hamkorlikda «Inson jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi», «O'z uyingni o'zing asra», «Yoshlar terrorizmga qarshi» mavzularda ochiq muloqotlar, davra suhbatlari va yig'ilishlarni tashkil qildik.

—Kamchiliklar yo'q deng?

—Afsuski, uchrab turadi.

Ayrim oilalarda gap-so'zlar bo'lib turadi, kelinchak va qaynonalar kelishmay qoladi. Ana shunday vaqtlarda yarashtiruv komissiyamiz faol tushuntirish ishlarini olib boradi. «Qaynagan» qaynonani,

«aynigan» kelinni murosa-yu madoraga solishadi. Xullas, ish bor joyda gap ham ko'p bo'ladi-da. Maqtanishga arzigulik ishlarimiz ko'rib turganingizdek bisyor.

Muharrama PIRMATOVA yozib oldi.

Belbog'li kurash bo'yicha viloyat sovrindorlari bo'lmish A'zam Madaminov, Abuquddus Mirzayev, Hayotbek Begaliyevlar istiqomat qiladigan mahallani Andijon viloyati, Asaka shahri markazidan topdim. Ulardan tashqari, kikkoksing bo'yicha



xalqaro turnir g'oliblari Shukrullo Teshaboyev, Muhammadali Abdurahmonovlar, taekvando bo'yicha xalqaro turnir g'oliblari Muhammad Turg'unov va Nosir Usmonovlar ham yashar ekan. Demak, ushbu mahallada yoshlar hayoti va taqdiri doimo nazorat ostida.

Mahalla azal-azaldan jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Bugungi mahallalarimiz timsolida sharqona udum, zamonaviy tarbiya, konservativ madaniyat, demokratik shaklni ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda o'zini o'zi boshqarishning mustaqil organi sifatida mahalla bevosita davlat va jamiyat hayotiga oid bo'lgan masalalarni bevosita hal qilmoqda. Asaka shahriga kelgan odamning ko'ziga mana shu shinamgina guzar, sarishta mahalla yarq etib tashlanishi bejiz emas. «Do'stlik» mahalla yig'ini



SHOHSUPAGA CHIQSAM


Men Fayziobod qishlog'ida yashayman, maktabimizdagi «Kamalak» bolalar tashkilotining sardoriman.

Qishlog'imiz juda go'zal va fayzli. Bu yerda 5ta maktab, 1ta litsey, 1ta shifoxona, 1ta sport zali bor. Maktabimizda 278 nafar a'lochi o'quvchilar o'qiydi. Ularning

umuman bo'sh vaqtlari

yo'q desam, ishonaverim. Barchamiz turli to'garaklarga, sport klublariga qatnashamiz. Men ham karate bilan shug'ullanaman. Murabbiyim Ibrohim aka Uzoqov «Sport insonning irodasini mustahkamlaydi», deydi. Tinimsiz mashqlar evaziga viloyatda 3-, 2- o'rinni egallaganman. Toshkent shahridagi «Jar» sport majmuidada o'tkazilgan musobaqalarda Nurxon Nafasov, Odiljon Norxo'jayev, Burxon Rahmonov kabi ko'plab chempionlar, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustalari bilan ko'rishganman. Ular kabi mashhur bo'lishni, shohsupaning cho'qqisini zabt etishni orzu qilaman.

Asadullo ABDURASHIDOV,
Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi
3-ixtisoslashgan maktabning
7-sinf o'quvchisi.



«CHO'LI IROQ»NI TINGLAB...

Kuy sehri

Bolalik. Uning dunyosi naqadar go'zal, onlari shirin, mehri maftunkor. Maktab davri. 6-sinfda o'qiydigan, sinfimizda jami 32 nafar o'quvchi bo'lib, ularning har birining o'z dunyosi, o'z xatti-harakati bor. Ammo Anvar to'g'risida gap ketganda, hamma orqo'ngiga qarab olardi. Axir undan yaxshilik kutmasliklari tayin edi-da. Kunlarning birida 8-sinfda o'qiydigan Shodmonni qora qoniga belangan holda maktabdan shifoxonaga olib ketishdi. Ertasi kuni Anvarni maktab direktori chaqirtirdi va uni maktabdan haydashayotganini sinf rahbarimizdan eshitdik. Chunki bundan oldin ham u bir necha marta ogohlantirish olgan edi-da. Direktor xonasidan sinf rahbarimiz bilan birga Anvar va maktabimizga yangi kelgan musiqa o'qituvchisi xonaga kirib kelishdi. Sinf rahbarimiz yangi kelgan o'qituvchini bizlarga tanishtirib, bundan keyin musiqa fani to'liq o'tilishi va darsdan hech kim qochmasligini ta'kidlab, Anvarga:

—Bu gap asosan senga tegishli. Oxirgi haftang, tag'in yangi o'qituvchida ham yomon taassurot qoldirib o'tirmagin-a, - deb chiqib ketdilar.

Yangi kelgan o'qituvchimiz har birimiz bilan alohida tanishib chiqqach, dars boshlandi. Ustozimiz diplomatlaridan nay va kitob chiqarib stol ustiga



qo'ydilar-da:

—Kim menga «Cho'li iroq» she'rini doskaga yozib beradi? - deb so'radilar. Hamma baravariga qo'l ko'tardi va Sabohat:

—Maylimi men yozsam, ustoz, -degach unga ijozat berildi. Partadan turaman degan Sabohat yig'lab yubordi. Amakivachchasi Sobir Anvarning basharasiga bir musht tushirgan edi, birdaniga sinfda g'ala-g'ovur boshlanib ketdi. Yangi o'qituvchi nayni

ko'tarib Anvarning oldiga keldilar-da, unga tikilgan musiqa chala boshladilar. Biz, aksincha, hozir ustoz nay bilan boshiga tushirsalar kerak, deb o'ylagan edik. Bu kuy borgan sari murg'ak yuraklarni o'ziga rom qila boshladi. Anvar haykaldek tik qotgan yerdan ko'zini uzmas edi. Ustoz uning yelkasidan quchib, o'tirishga ishora qildilar. Uning birinchi marta bunday holatga tushishi edi. Dars tugagach, Anvar Sabohatdan sochini partaga bog'lab qo'ygani uchun kechirim so'radi. To'g'rirog'i, quloqlarimizga ishonmadik.

...Oradan yillar o'tib, biz talaba bo'ldik. Anvar Diplomatya instituti, men Tibbiyot instituti talabasi edim. Bir kuni birga uyga qaytdik, poyezddan tushib ustozimizning xonadonlariga bordik. Anvar sumkasini titkilab nay oldi-da, «Ustoz, iltimos, yana bir marta «Cho'li iroq»ni chaling», deya ko'zlaridan yosh tirqiradi. «Tanidim, Anvarjon o'g'lim, tanidim», ota-boladek diyorlashayotgan ustozimiz uni bag'riga bosdilar. Men Anvarning ko'zini ochib, uni o'zgartirgan o'sha «Cho'li Iroq» kuyi ekaniga yana bir karra ishonдим.

...Men bilgan Anvar bugun katta idorada ishlaydi. «Cho'li Iroq» hamon uning eng sevgan kuyi ekanligiga shubham yo'q.

Mohigul SUVONOVA.

OZ-OZ O'RGANIB DONO BO'LUR

**Biz sevgan, e'zozda tutgan jaji va quvnoq kichkintoylar!
Kattalar hamisha Sizning g'amingizda yurishadi. Sizlarni jasur, mard va kamtar inson bo'lib yetishishingizni kim istamaydi, deysiz? Bilsak, biz ham ilm cho'qqilarini egallab, el-u yurtga xizmat qiladigan ajoyib farzandlar bo'lib yetishmog'ingizga chin dildan istaymiz.**

Yangi «Oz-oz o'rganib dono bo'lur» sahifamizni shu maqsadda tashkil etyapmiz. Zero, «Yaxshi niyat – yarim davlat», deyilar.

O'qing, o'rganing! Dunyoni bilimlilar qutqaradi!

To'qsonning teng yarmi o'tgach, (8-fevral) qantar og'adi. Ya'ni, qish tobora kamayishga yuz tutib, tabiat issiqlik sari siljiyveradi. Qorning erishi tezlashadi. Shu boisdan ham «qantar og'so qor turmas», deyilar. Qantar oqqan kundan e'tiboran quyosh nuri tushgan yerlardan bug' ko'tariladi. Ya'ni, yerning ichki harorati yuzaga uradi. Tabiatning uyg'onish davri boshlanadi. Oyning oxiri, xususan, uchinchi o'n kunligiga borib dalalar, qirlar sabzarang tusga kiradi, qori erigan yerlarda boychechak va mitti gullar ko'zga tashlanadi. Daraxtlar tanasiga suv yugurib, tol va terak kabi daraxtlar kurtagi, ayniqsa, tez kattalashaveradi. Havo iliq kelgan yillari bodom va hatto o'rik daraxtlari gullab qoladi. Kunlar sezilarli darajada uzayadi. Jadiy oyida gullar 1-2 daqiqadan uzaygan bo'lsa, endi bu 4-5 daqiqani tashkil etadi. Nihoyat, kichik chilla navbatni burji hokiyning so'nggi oyi hutga topshiradi.



Hisobla-chi,
Kelishardi
Izlab buloq,
Bir echki-yu
Ikki uloq.
Suv bo'yida
Ayni shu choq,
Yurar edi
Ikki o'rtoq.
Hamdam dedi:
- Qani o'rtoq
Bosh qotirib
Ko'r-chi bundoq.
Shularda bor
Necha quloq,
Qancha oyoq
Hamda tuyoq?

Topishmoq sh'er

Va'daga vafo

Uchrashish va'da qilingan joyga, xususan, havo yoqib turgan bo'lsa, bir daqiqa kechikmay, aniq vaqtda yetib kelish kerak.

- Tabiblarga hojat qolmasligi uchun nima qilishim lozim?
- Oz ye, oz uxla, oz so'zla.

Bilgilki, kurash odamlar ko'p qiziqadigan hamda sultonlar, shohlarga maqbul bo'lgan hunarlardandir. Bu ish bilan shug'ullanuvchi kishilar har qanday vaziyatda to'g'rilik va poklik qonuniyati bilan yashaydilar.

Agar kurashning ma'nosi nima, deb so'rasalar, javob berib aytgilki, buning ma'nosi odamizod xilqatidan kelib chiqadi, chunki odamzod o'z axloqini o'zgartirib boradi, ya'ni xulq-atvor yaxshilik tomon o'zgarishi kerak va bu so'zning haqiqati shundaki, odamda maqbul va nomaqbul axloqiy sifatlar orasida doimiy kurash boradi, ya'ni har bir sifat o'ziga qarshi sifatni daf qilish payida bo'ladi. Demak, kurash inson xilqatidagi shu xususiyatni ifodalaydi.

«Ilm» bilan «olim»

so'zlari bir o'zakdan. Xalq har ikkalasining ham bahosini yaxshi biladi. «Ilm igna bilan quduq qazish» deb ta'riflanadi. Tasavvur qiling-a, igna bilan quduq qazib, uning suvidan bahramand bo'lgan, ilm ahlini, odamlarni bahramand qilgan kishi olimdir.

Ayni vaqtda xalq yana deydi: «Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin».

E'tibor qiling:

Bu yerda gap «olim bo'lish osonligi»da emas (igna bilan quduq qazish oson ekanmi!), balki «odam bo'lish qiyinligi»da. Demak, shunday tushunish kerakki, olim bo'lish qanchalik qiyin bo'lsa, odam bo'lish undan ham chandon-chandon qiyin.

**Olim bo'lish oson,
Odam bo'lish qiyin.**

Xudo rahmatli otamiz bir kuni menga shunday degandilar:

- Qarshi o'g'lim, men shuncha yashab, bu dunyoda o'g'rining boyiganini, yolg'onchining obro'topganini ko'rmadim. Men o'zim ishonch hosil qilgan narsaga seni ham da'vat qilmoqchiman: pok kishilar qanday yo'l tutsalar, sen ham shunday qil, hech qachon kam bo'lmaysan!
Bobong menga ko'p nasihatlar qilgandi, ularga amal qilib kam bo'lmadim.

Qo'pol so'z sabab

Oilada yoki jamiyatda sodir bo'ladigan katta-kichik janjallarni diqqat bilan kuzatilsa, barchasining sababi ko'pincha qo'pol so'z va muomala bo'lishi muqarrar. Bir kishi o'ylamasdan gapirib qo'ysa, boshqasiga shu gap yoqmaydi va natijada befordan-bekorga janjal kelib chiqadi. Shirinso'z ko'pgina muvaffaqiyatlarning omilidir.

Qiyofaga qarab

Har kimning boshi katta, to'rtburchakli va tep-tekis bo'lsa, sochlari qalin va qattiq bo'lsa, uning aql sohibi, fahm-u farosatli va himmatli, caxovatliligidan dalildir.

Ob-havo darakchisi

Gullarning odatdagidan ko'proq hid tarata boshlashi yomg'ir yog'ishi alomatidir. Karnaygul shom kirmay ochilsa, kechasi ayoz bo'ladi. Chinnigul o'zidan yoqimli hid taratsa, shamol bo'ladi.

qahramonimiz chaqqonligi va tirishqoqligi bois tezda barchaning nazariga tushadi.

– O‘z vazifamizni uddalab, tunda soat uchlarda polkka qaytarkanmiz, yo‘lda noxush xabarni eshitib darhol buyurilgan manzilga oshiqdik, – deya hikoya qiladilar ular. – Sababi, shu viloyatning nufuzli rahbarlaridan biriga yangi uy

Tinchligimiz – baxtimiz

yerda esa sochlari qop-qora, jajjigina chaqaloqqa qadrdon bo‘lgan beshik yo‘q edi. Nailoj, uni katta temir kareta (tog‘ora)ga solib tebratishar, lekin oromini topolmagan qizaloq ko‘p inijlik qilardi.

– Xizmatni yaxshi o‘tayotganim bois, meni qismimizda qoldirishmoqchi bo‘lishdi.

Rafiqam Zumradxon esa bunga ko‘nmasdan har kuni kalendar varag‘ini belgilab, tezroq xizmat muddatim tugashini orziqib kutar, ona yurtimizga qaytib, Gavharoyni beshikka solishni orzu qilardi.

Xizmat joyimni yaxshi ko‘rgan bo‘lsam-da, xosiyatli beshik sabab o‘zga yurtda qolmadik.

BOBOJONIMGA O‘XSHASHNI XOHLAYMAN

(Nevara bilan suhbat)

– Qiz bolalar do‘st bo‘lolmaydi, deysizmi Sherzodjon?

– Ha, ular urishqoq. Sinfimizda Kamilla, Inna, Jenya singari qizlar o‘qishadi. Birpasda janjallashib ketishadi, yaxshisi, ularga indamagan ma‘qul.

– Siz tahsil olayotgan 5-«A» sinfni eng iqtidorli sinf, deyishayaptiku, yo yanglishdimmi? Urishqoq qizlar bo‘lsa, tartibi yomon sinf ekan-da?

– Yanglishmadingiz. Sinf rahbarimiz Nina Panova bizga juda mehribon. Darslarimiz qiziqarli. A‘lochi o‘quvchilarimiz ko‘p. Urishqoqlik masalasiga kelsak, sinf rahbarimiz bir zumda ularni murosaga keltirib qo‘yadilar.

Bizning Chilonzor tumanidagi 101-maktabimizga grant bo‘yicha ko‘plab kompyuterlar keltirishdi. Endi alohida-alohida kompyuter xonalarda tahsil olyapmiz. Rustam, Marsel, Artur, Danat singari do‘stlarim bilan turli programmalar tuzishni o‘rganayapmiz.

– Karatening shotakan turiga qatnashar ekansiz, ingliz tili to‘garagi, musiqa maktabi mashg‘ulotlari, bu yoqda darslar... Barchasiga qanday qilib ulgurayapsiz?

– Oyijonim boshchiligida rejalashtirilgan kun tartibim bor. Unga qattiq amal qilaman. Shu bois ham barchasiga ulguraman. Yaxshi o‘qiymen.

– Demak, lider ekansiz-da?

– Yo‘q-yo‘q, sinfimizda birgina lider bor, u ham bo‘lsa, Sasha. Ammo men ham albatta lider bo‘laman.

– Kimlarga havas qilasiz?

– Bobojonimga. Hamisha ularga o‘xshagim keladi.

Ha, bir so‘z bilan aytganda, Sherzodjon ta‘kidlaganidek, umr yo‘llari davomida o‘zgalarga faqat ezguliklar ulashib yashayotgan Tolibjon aka Umurzoqovga chindanda havas qilsang arziydi.

Jamila HAYDAROVA.

Aziz bolajonlar! Qirg‘in-barot urushlar odamlar boshiga ne-ne kulfatlar keltirishini bilasiz-a? Buni kinofilmlarda tomosha qilib, kitoblarda o‘qib, bobo-yu buvijonlarimizdan eshitib, bilib olgansiz. U holda tilsiz ajal atalmish minalar, snaryadlar, o‘qlar kabi sovuq urush qurollari haqida ham ozmi-ko‘pmi tasavvurga egasiz.

Qariyb 25 millionga yaqin kishining yostig‘ini quritgan ushbu qonli urush bizdan qancha uzoqlashib ketayotgan bo‘lsa-da, hamon uning achchiq xotiralari dilimizni tig‘laydi. Siz-u bizni ogohlikka chorlab, hushyor turishga undaydi. Tinchlik bebaho boylik ekanligini anglatib turadi.

Bugungi osoyishta hayotimiz uchun hissa qo‘shgan Tolibjon akaning nabirasi Sherzodjon bobosining qo‘llaridan yetaklab tahririyatimizga kirib kelarkan, uning qalbidagi cheksiz quvonchni ko‘zlaridan uqib olish qiyin emasdi.

BOBO IZIDAN...

UYALISH – ODOBNING UKASI

O‘zbeklar bolajon xalq. Og‘zidagi yeb turgan nonini o‘z farzandlari qolib, hatto qo‘ni-qo‘shnilarning bolalariga ham ilinayotgan Sofiyaxon aya ham ota, ham ona bo‘lib, 4 nafar norasida go‘dagini tarbiya qildi. Oilaning to‘ng‘ichi Tolibjon aka hamisha validasiga yelkadosh bo‘lishga intilar edi.

– Tunlari allamahalgacha onamning yonida chuchvara tugib uyquga to‘ymasam-da, saharlab soat 5da uyg‘onib yo‘lga tushardim. Chunki maktabda oshpazlik qilayotgan onamga ularni sotish uchun olib borishim lozim edi. Yo‘lda meni ustozlarim yoki o‘rtoqlarim ko‘rib qolmadimikin-a, degan hadikda har kuni darslarda yurak hovuchlab o‘tirardim. Sababi, bu ishimdan qattiq uyalardim.

Maktabimizdagi radiotexnika to‘garagini fizika fani o‘qituvchimiz Sa‘dulla Abdullayev boshqarardi. Ular shu darajada fidoiy edilarki, hatto oylik maoshlaridan bizning yasayotgan radioqurilmalarimizga kerakli qismlarni sotib olib berardilar. Har bir yutug‘imizdan bolalarcha quvonar, dars jarayonimiz esa xuddi mo‘jizaga o‘xshardi, – deydi Tolibjon aka.


BOLALARDA NIMA AYB?

Tolibjon aka Ukraina Respublikasining Kanotik shahrida sapyorlar qismida harbiy xizmatda bo‘ldi. Harbiy xizmatni intizomli uddalagan

berishgan ekan. Falokatni qarangi, uy yaqinidagi qazilgan xandaqda o‘rtog‘i bilan o‘ynab yurgan ularning 8 yashar o‘g‘li bilmasdan minaga tegib ketgani bois, ikkalasi ham voqea joyida portlab ketibdi. Barchamizning qo‘llarimiz o‘z-o‘zidan musht bo‘lib tugildi. Begunoh bolalarning o‘limi menga qattiq ta‘sir qildi. Urushning asorati... Qanchalik dahshat. Bolalarda nima ayb?! Ularning ne gunohi bor edi... Bundan keyin bolalar bunday falokatlarga duch kelmasin deya jon-jahdim bilan ishga kirishib, Ukraina diyorida ikki yillik xizmatim davomida 4820 dona minalarni zararsizlantirdim.

XOSIYATLI BESHIK

Beshik chaqaloqning osoyishta uyi. Ikkinchi tomoni, bu mo‘jiza. Harbiy xizmatga oilasini ham olib ketgan Tolibjon akaning katta qizi Gavharoy Ukraina Respublikasida tug‘iladi. Bu





Boburjon Ramazonov Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi Shotursun G'ulomov nomli 114-maktabning 5-«B» sinfida o'qiydi. Nilufar Parpiyeva esa Mirobod tumanidagi 147-maktabning 4-«B» sinfida tahsil oladi. Ularning bobo va buvionlari qardosh Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, Olabuqa tumaniga qarashli Oqqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qilishadi. Bobur va Nilufar har yili yozgi ta'til kunlarini ana shu so'lim qishloq bag'rida o'tkazishadi.

Qishloqning betakror, fusunkor tabiatidan ilhom olib, ularning murg'akkina qalblarida san'atga, rasm chizishga mehr uyg'ongan bo'lsa, ne ajab?!

Quyida ana shu tengdoshlaringiz chizgan rasmlardan ko'rgazma tashkil qildik. Ular sizga ham ma'qul bo'ladi, degan umiddamiz.




Boburjon



RASMLAR KO'RGAZMASI



Nilufar



Boburjon

**AZIZ OTA-ONALAR, BOBO-BUVI, XOLALAR,
KATTA-KICHIK ZIYOLI AKALAR, SHO'X BOLALAR!**

MAHSULOTLAR BIZDA MO'L, IKKILANMAY OLING YO'L!

**Eng mazmunli, eng sifatli, bejirim kitoblar
«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy
uyi mahsulotlari Sizni kutmoqda!**

Bundan tashqari, nashriyat-matbaa ijodiy uyining bosmaxonasida ko'p ming nusxadagi mamlakatning eng ommaviy «Postda», «Vatanparvar», «Tong yulduzi», «Tasvir plyus», «Hordiq plyus», «G'uncha», «Gulxan» singari gazeta va jurnallari ham 4 rangda va sifatli chop etiladi.

«O'zbekiston» NMIUning noshir va matbaachilari tomonidan tayyorlangan rangli albom-kitoblar Rossiya Federatsiyasining poytaxti Moskvada o'tkazilgan 2006-yilgi Xalqaro «Kitob ko'rgazmasi»da eng yuqori mukofot bilan taqdirlandi.

Yaqinda nashriyat-matbaa ijodiy uyi qoshida «Tezkor raqam»li chop etish sexi ishga tushdi.

Bu sex qisqa fursat ichida, hatto bir necha soat ichida Sizga:

Tashrif qog'ozlari;

Bukletlar;
Turli blankalar;
Flayerlar;
Broshyuralar;
Plakatlar;
Etiketkalar;
Kalendarlar;
Nakleykalarni tayyorlab beradi.
Zarurat tug'ilsa, tayyor mahsulotlarni laminatsiyalaydi.
Futbolkalarga va krujkalarga matn hamda rasmlarni bosib beradi.

Kitoblarni termomuqovalaydi.

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi mamlakatimizning eng peshqadam va zamonaviy chop etish mashinalariga ega noshirlik markazidir.

Eng a'lo sifat, eng zamonaviy dizayn, eng arzon bosma mahsuloti – nashriyat-matbaa ijodiy uyi jamoasining shiori.

**Bizning manzil: O'zbekiston Respublikasi,
100129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Tel: 144-10-04, 144-33-79, 144-37-81.**

**TONG
yulduzi**

BOSH MUHARRIR v.b:

To'lqin HAYITOV

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi o'rinbosari),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

**Gazeta O'zbekiston
matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan
2007-yil 2-fevralda
ro'yxatdan o'tgan.**

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 59839

Buyurtma N: J 3315

Dizayner va
sahifalovchi:

Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:

Jamila

ERDONOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilibiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10